



**IJTIMOIIY FALSAFA TARAQQIYOTIDA QADRIYATLAR O'RNI**

**Usmanova Shohsanam., Igamberdiyev Doniyorjon.,  
Xolboyev Dilmurod., Qobiljonov Kamronbek**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Maqola haqida ma'lumot**  
**Qabul qilingan: 12.06.2024**  
**Qayta qabul : 14.06.2024**  
**Saytda mavjud : 19.06.2024**

**Muallif (lar)**  
**Sh.Usmanova**  
**D. Igamberdiyev**  
**D. Xolboyev**  
**K. Qobiljonov**



**Muallif bilan aloqa**  
[ulashova@gmail.com](mailto:ulashova@gmail.com)

© **Sh.Usmanova va boshqalar**

**UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal**

Ochiq ma'lumotlar:  
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

**Maxfiylik bayonoti**  
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadriyatlar tizimi, qadriyatlarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Qadriyatlar, voqelik, tizim, aksiologiya, milliy ong, milliy g'urur.

**Абстрактный.** В данной статье говорится о системе ценностей, роли ценностей в общественной жизни.

**Ключевые слова.** Ценности, реальность, система, аксиология, национальное сознание, национальная гордость.

**Abstract.** This article talks about the value system, the role of values in social life.

**Keywords.** Values, reality, system, axiology, national consciousness, national pride.

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan. Holbuki qadriyat aksiologiyaga xos kategoriyadir. Qadriyatni aksiologiya nuqtayi nazaridan talqin qilish uni kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar. talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi.

Qadriyatlar tizimi. Har qanday jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug', qabila, elat, halq, millat), ijtimoiy sub'ektlar va boshqalar o'ziga hos qadriyatlar tizimiga ega bo'ladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo'lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli holatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladiki, u o'sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning

faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik, sinf va partiyalar ham ana shunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat ko'rsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo'llaydilar.

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodasilarga munosabat

Xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kundan boshlab, hayotimizning barcha jabhalarida «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g'urur», «milliy iftixor» kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Bu bejiz emas. Zotan, mustaqillik ayni paytda milliy tiklanish hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Qadriyatlar falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, biror ob'ektning

Ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongining normativ belgilovchi – baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlarini)ni ifoda etadi».

Shunga yaqin nuqtai nazar O'zbek Sovet entsiklopediyasida ham bayon etilgan:

«Qadriyatlar (falsafa sotsiologiyada) – voqelikdagi muayyan xodisalarning inson,

Ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha».

Taniqli faylasuf olim V.P. Tugarinovning fikricha, «qadriyatlar muayyan jamiyat

Va sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat xodisalarining mohiyati yoki hodisaning bir jihatidir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o'z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o'zlari uchun maqsad yoki ideal qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotda muhim bo'lish boshqa barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqqa chiqaradi, qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir».

Millat va xalqlarning diniy e'tiqodi, marosim va an'analari milliy qadriyatlar

sifatida o'zining asl hayotiy sifatini tiklab olmoqda.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: tabiat va jamiyat xodisalarini qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, orzu-umidlari, maqsadlari bilan belgilanadi.

Demak, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari xodisalari tushunilmog'i lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. - T., "Sharq", 2004 yil.
2. J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. - T., 2001 yil.
3. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupovning umumiy tahrir ostida. - T., "Sharq", 1999 yil.
4. Falsafa (Matbua Axmedovanning umumiy tahriri ostida) - T., "O'zbekiston filasouflari Milliy jamiyati" nashriyoti, 2006 yil.
5. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar.1-kitob. – Toshkent , 2004. – B.43
6. Abdulhay Valiyev. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil, referat.